

## I.2-GRAFIK VAZIFALARINI BAJARISHGA DOIR METODIK KO'RSATMALAR.

**1.2-masala.** Koordinatalari berilgan DC to‘g‘ri chiziq kesmasining fazoviy holati qurilsin, epyuri bajarilsin va to‘la tahlil qilinsin (kesma uchlari turli oktantlarda joylashgan).

**1-bosqich.** Fazodagi DC to‘g‘ri chiziq kesma uchlарining D(56, -35, 17) va C(29, 29, -45) nuqtalar koordinatalari berilgan bo‘lsin. Bu yerda C nuqta IV va D nuqta II oktantda joylashgan. Shuning uchun dastlab, II va IV oktantlarning fazoviy holati va epyuri chiziladi (2-rasm, a). II va IV oktantlarning fazoviy holati va epyuridagi koordinata o‘qlariga D nuqtaning ham  $x(56 \text{ mm})$ ,  $y(-35 \text{ mm})$ ,  $z(17 \text{ mm})$  va C nuqtaning  $x(29 \text{ mm})$ ,  $y(29 \text{ mm})$ ,  $z(-45 \text{ mm})$  masofalari o‘lchab qo‘yiladi hamda o‘qlarda  $D_x$ ,  $D_y$ ,  $D_z$  va  $C_x$ ,  $C_y$ ,  $C_z$  nuqtalar aniqlanadi.

$C_x$  nuqtadan y va (-z) o‘qlariga,  $C_y$  nuqtadan x va (-z) o‘qlarga,  $C_z$  nuqtadan x va y o‘qlariga parallel bog‘lovchi to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi. Bu bog‘lovchi chiziqlar mos ravishda kesishib, C nuqtaning gorizontal ( $C'$ ), frontal ( $C''$ ) va profil ( $C'''$ ) proyeksiyalarini beradi. C nuqtaning fazodagi o‘rnini aniqlash uchun  $C'$  dan -z ga,  $C''$  dan y ga,  $C'''$  dan x ga parallel chiziqlar o‘tkaziladi. O‘tkazilgan chiziqlar o‘zaro yagona nuqtada kesishib fazodagi C nuqtaning o‘rnini aniqlaydi.

$D$  nuqtaning  $D'$  (gorizontal),  $D''$  (frontal),  $D'''$  (profil) proyeksiyalari, fazodagi o‘rni  $D$  huddi C nuqtaniki kabi berilgan koordinatasi asosida aniqlanadi. Bu yerda jarayon II chorakda amalga oshiriladi (2-rasm, a).

**2-bosqich.** Fazodagi D va C nuqtalar tutashtirilib, DC kesmaning fazodagi o‘rni hosil qilinadi (qizil rangda). D va C nuqtalarning aniqlangan bir nomli proyeksiyalar, ya’ni  $D'$  va  $C'$ ,  $D''$  va  $C''$ ,  $D'''$  va  $C'''$  nuqtalar o‘zaro tutashtiriladi (ko‘k rangda). Natijada  $D'C'$ ,  $D''C''$  va  $D'''C'''$  kesmalar hosil bo‘lib, ular fazodagi DC kesmaning mos ravishda gorizontal, frontal va profil proyeksiyalarini hisoblanadi (2-rasm, b).

**3-bosqich.** 2-rasm, c da DC kesmaning tahlili ko‘rsatilgan. Bu bosqich epyurda bajarilib, unda DC kesmani tahlil qilish uchun kesma uchlарining gorizontal, frontal, profil proyeksiyalar tekisliklaridan uzoqliklarining algebraik ayrimasi  $\Delta z(\Delta z = D_z - C_z = 17 - (-45) = 62)$ ,  $\Delta y(\Delta y = D_y - C_y = 29 - (-35) = 64)$ ,  $\Delta x(\Delta x = D_x - C_x = 56 - 29 = 27)$  masofalar belgilanadi. Kesmaning har bir proyeksiyasini biror uchi (C yoki D) dan unga perpendikular chiziq chiqariladi va unga mos ravishda  $\Delta z$ ,  $\Delta y$  va  $\Delta x$  masofalar o‘lchab qo‘yiladi. Natijada  $C_0$  yoki  $D_0$  nuqta (kesmaning qaysi uchidan unga perpendikular chiqarilsa shu nuqta nomi bilan unga nolli indeks qo‘yiladi) aniqlanadi.



Aniqlangan  $C_0$  yoki  $D_0$  nuqta kesmaning ikkinchi uchi D yoki C nuqta bilan tutashtiriladi. Bu tutashtirishdan hosil bo‘lgan  $C'D_0$ ,  $D''C_0$ ,  $D'''C_0$  kesmalar DC kesmaning H, V, W tekisliklarda aniqlangan haqiqiy uzunligi bo‘ladi va u qizil

rangda chiziladi.  $DC$  kesmaning proyeksiyalari va haqiqiy uzunliklari orasidagi  $\alpha$ ,  $\beta$  va  $\gamma$  burchaklar uning proyeksiyalar tekisliklari ( $H$ ,  $V$  va  $W$ ) bilan hosil qilgan burchaklarining haqiqiy kattaligi hisoblanadi.



Chizmaning fazoviy holatida proyeksiyalar tekisliklari shartli ravishda chegaralanadi. Natijada  $DC$  ( $D'C'$ ,  $D''C''$ ,  $D'''C'''$ ) kesmaning bir qismini  $H$  horizontal va  $V$  frontal proyeksiyalar tekisliklari to'sib qoladi va o'sha qismi shtrix chiziqda chiziladi.

**4-bosqich.** Chizma taxt qilinadi, ya'ni chizma qog'ozini hoshiyasi, asosiy yozuv o'rni chiziladi va u belgilangan tartibda to'ldiriladi (2-rasm,  $d$ ).

1.2-masalani bajarish uchun variantlar 1-jadvaldan olinadi.



NAMUNA



2-rasm

Har-bir talabanining jurnaldagи qayd raqами variant nomeri hisoblanadi.

1-jadval

Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar			Variant №	Nuqta	Koordinatalar		
		X	Y	Z			X	Y	Z			X	Y	Z
1	A	50	80	0	11	A	50	90	0	21	A	55	70	45
	B	0	40	80		B	100	0	25		B	80	0	10
	D	100	0	-25		D	80	-70	35		D	100	50	-50
	C	40	5	5		C	0	30	40		C	0	50	-30
2	A	25	70	80	12	A	50	40	0	22	A	45	60	20
	B	0	30	15		B	0	40	80		B	0	10	90
	D	75	-20	35		D	50	-80	0		D	10	-15	-30
	C	10	30	70		C	90	-40	-45		C	80	-50	-15
3	A	80	0	40	13	A	80	85	60	23	A	20	85	0
	B	80	45	0		B	0	40	60		B	55	10	80
	D	0	40	-60		D	90	50	-10		D	10	-15	30
	C	75	10	15		C	60	60	-70		C	60	-40	60
4	A	100	0	60	14	A	70	0	40	24	A	20	65	0
	B	60	60	5		B	5	35	5		B	100	25	45
	D	15	-40	-55		D	40	20	0		D	70	-30	10
	C	0	35	-20		C	90	-50	-45		C	0	40	60
5	A	90	80	20	15	A	60	80	45	25	A	70	65	70
	B	70	0	60		B	5	15	0		B	100	35	20
	D	0	-60	-50		D	70	-60	65		D	5	-5	-90
	C	60	-10	-20		C	20	-60	0		C	60	-80	0
6	A	100	10	20	16	A	75	40	85	26	A	65	55	45
	B	40	70	0		B	0	70	0		B	65	15	30
	D	35	-10	70		D	15	-80	-70		D	60	0	-80
	C	70	-45	10		C	60	-30	-40		C	80	50	-15
7	A	0	65	40	17	A	90	0	70	27	A	45	10	70
	B	65	0	5		B	0	60	10		B	70	0	10
	D	40	-30	-40		D	15	50	15		D	70	60	30
	C	100	-60	20		C	80	-20	60		C	0	40	-60
8	A	100	70	85	18	A	80	10	55	28	A	80	20	55
	B	70	0	45		B	40	60	0		B	20	40	10
	D	55	40	0		D	40	-30	15		D	40	30	35
	C	80	-35	20		C	100	-30	50		C	90	-65	-25
9	A	35	60	0	19	A	0	75	40	29	A	100	45	60
	B	0	10	90		B	70	35	40		B	45	45	15
	D	80	-40	-10		D	80	-50	-20		D	40	-30	40
	C	10	-10	30		C	30	-5	-60		C	85	-20	-25
10	A	20	85	0	20	A	5	60	45	30	A	20	20	50
	B	55	10	80		B	80	0	0		B	65	45	0
	D	95	-55	45		D	75	30	20		D	55	0	-10
	C	60	0	10		C	0	-40	70		C	80	-60	-50